

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 274 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,
Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
Buzrukhanov Sarvarkhan Munavvarhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oly Majlis of the Republic of Uzbekistan
Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation
Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute
Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE
Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE
Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University
Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan
Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan
Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE
Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute
Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia
Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction
Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey
Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatichiligi.....	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatlari investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirova	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiysi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari..... Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	133
Davlat budgetining soliqli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Cостояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maximudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budgeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari.....	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach.....	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloyevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruva faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Cуть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	

MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



INNOVATION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA SIFAT MENEJMENTINI JORIY ETISHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI

Zarina Ashurova

TAQU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmenti va uni rivojlantirish masalalari taddiq etilgan. Sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy asoslari yuzasidan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy taddiqot ishlari tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi zamонави sharoitlarda sifat menejmentini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: menejment, sifat, sifat menejmenti, raqobat, raqobatbardoshlik, innovation iqtisodiyot, sifat menejmenti tizimi, sifat menejmenti tamoyillari, ISO standartlari, umumiy sifat menejmenti.

Abstract: The article explores the issues of quality management and its development in the conditions of the formation of an innovative economy. Scientific research work of domestic and foreign scientists has been analyzed on the theoretical and methodological foundations of the introduction of quality management. Also, in today's modern conditions, priority areas for the development of quality management are indicated.

Key words: Management, quality, quality management, competition, competitiveness, innovative economy, quality management system, principles of quality management, ISO standards, principles of quality management, ISO standards, general quality management.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы управления качеством и его развития в условиях формирования инновационной экономики. Проанализированы научно-исследовательские работы отечественных и зарубежных ученых по теоретико-методическим основам внедрения менеджмента качества. Также указаны приоритетные направления развития менеджмента качества в современных условиях.

Ключевые слова: Менеджмент, качество, менеджмент качества, конкуренция, состязательность, инновационная экономика, система менеджмента качества, принципы менеджмента качества, стандарты ISO, принципы менеджмента качества, стандарты ISO, общий менеджмент качества.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va bozor mexanizmlarining murakkablashishi iste'molchilarining ehtiyojlar, talabi va dunyoqarashining o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq. Ishlab chiqaruvchilarning bozordagi harakatlari raqobat muhitida ularning strategiyalarini belgilab beradi. Mahsulot sifati bu raqobatdagi asosiy omil hisoblanib, xaridorlar uchun mahsulotning jozibadorligini oshirish va bozordagi mavqeini mustahkamlashda muhim o'rinn tutadi.

Sotuvchi va xaridor o'rtasidagi baholar va sifat masalalari bo'yicha kelishuvlar hamda raqobat muhiti mahsulotning bozordagi muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Shu bois, sifat menejmentining samarali tashkil etilishi iqtisodiyotning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatbardoshlikni oshirish, mijozlar talablarini qondirish va bozorda o'z o'rnini saqlab qolish imkoniyatini beradi. Bu iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi.



Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida innovasion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish uchun xalqaro standartlarga mos keluvchi sifat menejmenti tizimlarini joriy qilish muhimdir. Milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini oshirish mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq.

Rivojlangan davlatlarda iqtisodiy muvaffaqiyat eksportning importga nisbatan bir necha barobar yuqori bo'lishi bilan belgilanadi. Bu esa sifat menejmenti tizimining to'g'ri tashkil etilganligi va xalqaro standartlarga muvofiq kelishi orqali ta'minlanadi. Iqtisodiyotning erkinlashuvi va fan-texnikaning rivojlanishi sharoitida mahsulot sifatini yaxshilash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylanadi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida sanoat tarmog'ining rivojlanishiga qaratilgan maqsadlar va vazifalar belgilangan bo'lib, ular tarmoqdagi yo'qotishlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o'rnini mustahkamlashga yo'naltirilgandir. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksportini oshirishda sifat menejmenti va standartlashtirish masalalari muhim o'rinni tutadi[1].

Bu holat mahsulotlar sifatiga e'tiborni kuchaytirish va korxonalarning amaldagi boshqaruv tizimida yanigicha yondashuvni joriy qilishni talab qiladi. Sifatni boshqarish va standartlashtirish jarayonlari orqali korxonalar o'z raqobatbardoshligini oshirib, global bozorda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, mahsulot sifatining yaxshilanishi jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobji ta'sir ko'rsatadi. Korxonalarning yuqori sifatga ega mahsulot ishlab chiqarishga intilishi faqatgina iqtisodiy samaradorlikni oshiribgina qolmay, jamiyatning umumiy farovonligini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mahsulot sifati bozorda muvaffaqiyat qozonish va raqobat kurashida muhim rol o'ynaydi. Sifat, yangilik, texnik daraja, nuqsonlar yo'qligi, foydalanishda ishonchilik va mustahkamlilik kabi omillar iste'molchilarni jaib qilish va bozorni egallahda asosiy faktorlar hisoblanadi.

Mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillaridan biri sifati bilan bog'liq. Korxonalarda mahsulot sifatini oshirish va boshqarish – bu zamonaviy biznesdagi muhim strategiyalardan biridir. Xorijlik olimlar ilmiy ishlari bu masala chuqur o'rganilgan. Ular orasida P. Samuelsonning ishlari muhim ahamiyatga ega.

Samuelson mahsulot sifati iqtisodiy samaradorlik, raqobatchilik va mijozlar talablarini qondirishdagi roliga alohida e'tibor qaratgan. Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, innovasion yangiliklarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish, ishchi kuchining malakasini oshirish kabi masalalar ko'pchilik olimlarning tadqiqotlarida muhokama qilingan[3].

Mahsulot sifatini yuksaltirish va boshqarish strategik rejallarda juda muhim hisoblanadi, chunki yuqori sifat mijozlarning ishonchini oshiradi, bozorda muvaffaqiyatni ta'minlaydi va raqobat ustunligini yaratadi.

G.G. Azgaldovning tadqiqotlarida korxonada sifatni boshqarish tizimiga nazariy yondashuvlar va uni baholash vositalari ko'rib chiqilgan. Uning ishlari sifatni boshqarishning nazariy asoslarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega[4].

Turli tarmoq va soha korxonalarida sifatni boshqarish tizimining amaliy jihatlari V.V. Buzirev va V.V. Okrepilovning tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar, amaliy tajriba asosida, sifatni boshqarish mexanizmlarini joriy etishdagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilish usullarini taklif etadi[5].

Korxonalarda sifatni boshqarish konsepsiyasining nazariy va amaliy jihatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar V.G. Versanning tadqiqotlarida ko'rsatilgan. Uning ishlari sifatni boshqarish tizimining integrasiyasi va turli mexanizmlar o'rtasidagi sinergiyani o'rganishda muhim rol o'ynaydi[6].

Bu tadqiqotlar barchasi sifatni boshqarish tizimini samarali amalga oshirishda muhim elementlarni aniqlash va faoliyatni takomillashtirishdagi muhim qadamlardir.

Adabiyotlarda zamonaviy jamiyatda sifat tushunchasi amaliy va texnik jihatlar bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi. Amaliy jihatlar talab va kutishlarni qondirishga, texnik jihatlar esa obyektlarning sifatini tavsiflashga yo'naltirilgan.

Dastlab, sifatni boshqarish usullari sanoat tarmog'ida keng tarqalgan bo'lsa-da, bugungi kunda ISO 9000 xalqaro standartlar seriyasiga muvofiq sifatni boshqarish falsafasi faqat ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmasdan, xizmatlar ko'rsatish sohasida ham, masalan, sog'liqni saqlash, turizm, ta'lim kabi sohalarda ham keng qo'llanilmoqda.

Bu standartlar sifatni ta'minlash va boshqarishning samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib, tashkilotlarga mijozlar talablariga muvofiq xizmatlarni ta'minlash va raqobatbardoshlikni saqlashda yordam beradi. Shuningdek, sifatni boshqarish falsafasini joriy etish korxonalar uchun innovasion rivojlanish, samaradorlik va mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.



TAHLIL VA NATIJALAR

Sifatli mahsulot ishlab chiqarish korxonalarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va ishchi-xizmatchilarning mehnat unumdarligida o'z aksini topadi. Mahsulot sifati yaxshilangani sayin ijtimoiy mehnat unumdarligi ortadi. Masalan, bir xil hajmdagi mahsulotlar sifat ko'rsatkichlari yaxshilanganda, ularning bahosi oshadi va tovar qiymati ko'payadi. Bu esa ishchilar soni o'zgarmagan holda har bir ishchiga to'g'ri keladigan o'ttacha tovar mahsuloti ko'payishiga olib keladi va mehnat unumdarligini oshiradi.

Raqobatga asoslangan iqtisodiyot sharoitida har qanday tashkilot va korxona sifatni boshqarishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Yuqori sifatli mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshlikning asosiy ko'rsatkichidir. Shuning uchun sifat menejmenti tizimini takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar olib borish hozirgi paytda juda muhimdir. Bu tadqiqotlar orqali korxonalar raqobatchilarga qarshi kurasha olish va iste'molchilarning talablariga to'liq javob berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari zamonaviy biznesda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon sifatni boshqarish tizimini samarali tashkil etish, korxonada sifatni ta'minlash uchun zarur metodologiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Sifatni boshqarishning nazariy asoslari, standartlar va falsafalar korxonalarning strategik maqsadlariga muvofiq ravishda rivojlanishini ta'minlaydi. Prosesslar aniqligi resurslardan samarali foydalanish va personal tayyorlarligi sifati boshqaruvida muhim o'r'in tutadi. Shuning uchun sifat menejmentini joriy etishda barcha elementlarni birlashtirgan kompleks yondashuv zarur. Ushbu masalalarni chuqur o'rganish raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlar talablarini qondirishda asosiy omildir.

1970-yillarda rivojlangan mamlakatlarda inflyasiya sababli tovarlar sifatiga e'tibor qaratish zaruriyati yuzaga keldi. Bu davrda chet el mamlakatlarda raqobat kuchayib, asosan, Amerika bozorlarida sifat muammolari dolzarplashdi. Osiyo davlatlari bu vaziyatdan foydalanib, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tdi va Amerikaning sifatli mahsulot ishlab chiqarish tajribasini o'zlashtira boshladi.

Sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish firmalar uchun yuqori foya olish imkonini berdi. Shu sababli ko'plab kompaniyalar sifatli mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Bugungi kunda sifat menejmenti mahsulot rivojlanishining har bir bosqichida sifatni nazorat qilishni anglatadi. Avvalda sifat bilan faqat ayrim xodimlar shug'ullanar edi, ammo hozirgi kunda sifat uchun to'g'ridan-to'g'ri boshqaruvchilar javob beradi. Bu o'zgarish sifat menejmentining strategik ahamiyatini oshirib, barcha bosqichlarda sifatni ta'minlash va yaxshilashga qaratilgan jiddiy yondashuvni talab qiladi.

Sifatni ta'minlash – iste'molchilarning talablarini to'liq qondirish, mahsulotdan uzoq vaqt foydalanishni ta'minlash va iste'molchilarni sifat bilan kafolatlash jarayonidir. Bu jarayon tayyorlovchi va buyurtmachi o'rtaida shartnoma asosida amalga oshiriladi. Sifatni samarali ta'minlash uchun yuqori rahbarlik quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olgan qat'iy siyosatni belgilash zarur.

Yaponiyada sifatni ta'minlash quyidagi yo'nالishlarda rivojlanmoqda:

1. Nazoratga asoslangan sifatni ta'minlash: Sifatni nazorat qilish uchun qat'iy standartlar va proseduralar joriy etish, shu bilan birga sifatni doimiy ravishda monitoring qilish.

2. Ishlab chiqarish jarayonini boshqarishga asoslangan sifatni boshqarish: Ishlab chiqarish jarayonlarida sifatni boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalar va metodlarni qo'llash, jarayonlarning har bir bosqichida sifat nazoratini o'rnatish.

3. Asosiy e'tiborni yangi xildagi mahsulotlarni ishlab chiqishga qaratilgan sifatni boshqarish: Yangi mahsulotlarni ishlab chiqishda sifatni yuqori darajada saqlash va innovasion yondashuvlarni qo'llash.


Bu mahsulotlarni raqobatbardosh qilish va iste'molchi talablarini qondirishda yordam beradi. Bu yondashuvlar sifatni ta'minlash va yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bozor talablariga mos keladigan mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Sifatni boshqarish mexanizmi kengaytirilgan metodologik tarkibiy yondashuvlardan foydalangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, umumiyl, maxsus va ta'minot tizimlaridan iborat. Bu tizimlar birgalikda korxonadagi sifatni boshqarish jarayonining mexanizmini belgilaydi.

1. Umumiy tizimlar – sifat boshqaruvining asosiy funksiyalarini o'z ichiga oladi va sifat boshqaruvini tashkil etishning asosiy qismlarini belgilaydi. Ular korxonaning umumiy strategiyasiga mos keladigan sifatni boshqarish prinsiplarini o'z ichiga oladi.

- Maxsus tizimlar – sifat boshqaruviga xos bo'lgan jarayonlar ketma-ketligidan iborat. Ushbu tizimlar maxsus sohalarda, masalan, ishlab chiqarish jarayonlarida yoki xizmat ko'rsatishda sifatni ta'minlash va oshirishga qaratilgan amaliyotlarni o'z ichiga oladi.

- Ta'minlovchi tizim – sifat boshqaruvini turli darajadagi ma'lumotlar, axborot, xabarlar, kadrlar va resurslar bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. Bu tizim sifatni boshqarishda zaruriy resurslar va ma'lumotlar oqimini ta'minlash uchun muhimdir.



1-rasm. Sifat menejmenti mexanizmi tizimlari¹.

Ushbu tizimlarning birgalikda ishlashi korxonada mahsulot sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va mijozning talablarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Sifat boshqaruvining integrasiyalashuvi esa tashkilotning umumiyl samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi vaqtida mahsulotlar sifatini yaxshilash strategik muammo sifatida mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi uchun muhim ahamiyatga ega. Sifatni oshirish jarayoni faqatgina foyda olish maqsadida emas, balki jamiyat ravnaqi uchun ham zarurdir. ISO standartlari universalligi bilan ajralib turadi, chunki ular mahsulotlarning har bir turiga nisbatan aniq o'lchovli mezonlar qo'yaydi. ISO 9000 standartlari esa sifat tizimining ishlash metodologiyasini belgilab beradi, bu esa korxonalar tomonidan ko'rsatilayotgan mahsulotlarning yuqori sifatini ta'minlaydi. Bu tizim iste'molchilarining talablarini yuqori darajada qondirishga imkon yaratadi, natijada korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi. Sifatni boshqarish jarayoni, shuningdek, iqtisodiyotning umumiyl rivojlanishiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Standartlar to'plami 4 ta asosiy standartdan iborat:

1. ISO 9000:2000 "Sifat menejmenti tizimlari. Asosiy qoidalalar va lug'at" – sifat menejmenti tizimlarining asosiy qoidalari va sifat menejmenti tizimi atamalarini izohlaydi.
2. ISO 9001:2000 "Sifat menejmenti tizimlari. Talablar" – sifat tizimlari uchun minimal zarur bo'lgan talablar majmuuni joriy qilib, sertifikatlash va audit maqsadlarida qo'llaniladi.
3. ISO 9004:2000 "Sifat menejmenti tizimlari. Faoliyatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar" – korxonalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan sifat menejmenti tizimlarini yaratish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalardan iborat.
4. ISO 19011 "Sifat menejmenti tizimini tekshirish va atrof-muhitni himoyalash bo'yicha yo'riqnomalar".

Tuzilishi va mazmuni bo'yicha o'zaro to'liq uyg'unlashtirilgan ISO 9001 va ISO 9004 standartlari asosiy hisoblanib, ular ham birga, ham alohida qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, qo'shimcha 10000 seriyali ISO yordamchi standartlari guruhi ham mavjud bo'lib, bularga sifat menejmenti tizimiga taalluqli hujjalarni ishlab chiqish, sifatning iqtisodiy masalalari, xodimlarni o'qitish, statistik usullarni qo'llash va hakoza bo'yicha turli qo'llanmalar kiradi [8].

¹ Муаллиф ишланмаси.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda zamonaviy sifat menejmenti tizimini samarali joriy etgan korxonalar va tashkilotlar o‘z mahsulotlari va xizmatlarining sifati orqali raqobatbardoshligini oshirishga erishadilar. Bu esa bozordagi pozisiyasini saqlab qolish va mustahkamlash imkonini yaratadi. Sifat menejmenti, shuningdek, korxonalar va mamlakatning milliy mahsulotlari va xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Natijada, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari, umuman, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ortishi, aholi turmush darajasi va sifatining oshishiga ijobji ta’sir ko’rsatadi. Sifatni yuqori darajada ta’minlash nafaqat korxona, balki butun mamlakat iqtisodiyoti uchun foydali bo‘lib, mijozlar talablarini qondirish va ularning ishonchini oshirishga yordam beradi. Sifat menejmentini rivojlantirish korxona faoliyatini samarali boshqarishga yordam beradi. Yaxshi tashkil etilgan sifat boshqaruvi tizimi mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, bu esa mijozlar qoniqishini ta’minlaydi. Sifatni boshqarish jarayonlari orqali resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Bundan tashqari, sifat menejmenti korxonaning ichki jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi, bu esa umumiy ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun zamonaviy standartlar va metodologiyalarni joriy etish zarur. Natijada, sifat menejmentining rivojlanishi korxona bozorga bo‘lgan o‘rnini mustahkamlab, iqtisodiy muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тарақиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. lex.uz/docs/5841063
2. Нурибетов Р. Замонавий сифат менежменти тизими ва уни жорий этиш масалалари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июн, 2021 йил.
3. Samuelson P. Ekonomika. - M.: Infra-M, 1994. S. 41-47.
4. Азгалдов Г.Г., Гличев А. В., Панов В. П. Что такое качество? — М.: Экономика, 1968. С. 102-105.
5. Бузирев В.В., Чекалин В.С. Экономика жилишной сферы. — М.: Инфра-М, 2001. С. 53.
6. Версан В. Г., Чайка И. И. Системы управления качеством продукции. — М.: Стандартинформ, 2008. С. 71-73.
7. Бирюков, А. П. Основные принципы создания системы управления качеством функционирования ЖКХ с использованием современных информационных технологий и средств связи / А. П. Бирюков. М.: Юго-Восток Сервис, 2005. 218 с.
8. www.standart.uz – Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги сайти маълумотлари.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

